

Hujjat kodi XBB-M-01	«NAVOIYAZOT» AKTSIYADORLIK JAMIYATI	____-nusxa
---------------------------------------	--	-------------------

“TASDIQLAYMAN”
“Navoiyazot” AJ
Boshqaruvi raisi v.b.
F.X. Samadov
 2025-yil “ 98 ” 12



«NAVOIYAZOT»AJning

**XAVF-APPETITI VA XAVF-TOLERANTLIK DARAJASINI ANIQLASH
METODIKASI**

MUNDARIJA

Bo‘lim raqami	Bo‘lim nomi	Bet raqami
-	Mundarija	2
-	O‘zgartirish (qo‘shimcha)larni qayd etish varaqasi	3
1	Maqsad	4
2	Qo‘llanish sohasi	4
3	Atamalar va ta’riflar	4
4	Havola hujjatlari	6
5	Qo‘llash uchun mas’ul shaxslar	6
6	Umumiy qoidalar	7
7	Xavf-appetiti va tolerantlik darajasi	7
	Xavf-appetitini ishlab chiqish	8
	Xavf-tolerantlikni hisoblash	9
	Tolerantlik darajalarini monitoring qilish	10
8	Asosiy xavf ko‘rsatkichlari (KRI)	10
	KRI ni aniqlash tartibi	11
	KRI monitoringi	13
	KRI bo‘yicha hisobot	14
9	Ilovalar	15

O'ZGARISH (QO'SHIMCHA) LARNI QAYD ETISH VARAG'I

O'zgarish (qo'shimcha) tahrir raqami	O'zgarish (qo'shimcha) larning qisqacha mazmuni	Tasdiqlangan sana	Amalga kiritilgan sana	Imzo

1. MAQSAD

1.1. Ushbu Xavf-appetiti va Xavf-tolerantlikni aniqlash metodikasi (keyingi o‘rinlarda – Metodika) “Navoiyazot” AJning Xavflarni boshqarish siyosatiga (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Metodikaning maqsadi – Xavf-appetiti, Xavf-tolerantlik darajalari va asosiy xavf ko‘rsatkichlari (keyingi o‘rinlarda – KRI)ni aniqlash, hujjatlashtirish va monitoring qilish bo‘yicha yagona yondashuvni o‘rnatish, shuningdek, korporativ va operatsion darajadagi xavflarni boshqarish jarayonlarining uyg‘unligini ta‘minlashdan iborat.

2. QO‘LLANISH SOHASI

2.1. Ushbu Metodika, xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish uchun mas‘ul bo‘lgan Korxonaning barcha tashkiliy tuzilmalari xodimlari tomonidan qo‘llaniladi.

2.2. Metodika Korxonaning ichki hujjati hisoblanadi va uchinchi shaxslarga taqdim etilmaydi, davlat boshqaruv organlari hamda ekspertlar va auditorlar tomonidan boshqaruv tizimlariga muvofiqlik tekshiruvlari o‘tkazilganda bundan mustasno.

3. ATAMALAR VA TA‘RIFLAR

Xavf ta’siri	Xavf amalga oshgan taqdirda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy yo‘qotish hajmi
Xavfning yuzaga kelish ehtimoli	Xavf amalga oshishining davriyligi yoki ehtimol darajasini baholash.
Xavflar xaritasi	Xavflarni ustuvorlashtirish maqsadida xavf ehtimoli va ta’siri kombinatsiyasini grafik ko‘rinishda aks ettirish
Faoliyatning asosiy ko‘rsatkichi	Xavf ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tashkilotning belgilangan maqsadlarga qanchalik samarali erishayotganligini o‘lchaydigan ko‘rsatkichlar.
Asosiy xavflar	Yuzaga kelish ehtimoli va ta’siri darajasi bo‘yicha eng ahamiyatli xavflar
Asosiy xavf ko‘rsatkichlari	Faoliyatning turli sohalarida xavf omillaridagi o‘zgarishlar haqida oldindan signal beruvchi indikatorlar. Ular potensial xavflarni oldindan aniqlash va ta’sirini kamaytirish choralarini ko‘rish imkonini beradi
Tuzatuvchi chora-tadbirlar	Amalga oshgan xavf oqibatlarini bartaraf etish yoki minimallashtirishga, shuningdek jarayonlarning me‘yoriy faoliyatini tiklashga qaratilgan choralar.
Xavf	Tashkilot maqsadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan voqea yoki holatning yuzaga kelishi ehtimoli
Xavflarni boshqarish tizimi	Xavflarni aniqlash, tahlil qilish, baholash va monitoring qilishni, shuningdek, ularni boshqarish choralarini ishlab chiqish va amalga oshirishni ta‘minlaydigan prinsiplar, jarayonlar, tartiblar va vositalar majmui, bu esa barqarorlikni oshirish va Korxona strategik va operatsion maqsadlariga erishishni ta‘minlaydi.
Tashkiliy tuzilma	Korxonaning tashkiliy tuzilmasi bo‘lib, ijro etuvchilar yoki ishchilar jamoasidan iborat bo‘lib, boshqaruv yoki ishlab chiqarish jarayonida boshqa bo‘linmalarning funksiyalaridan farqli, alohida va aniq belgilangan

	funksiyalarga ega bo'lib, korxona tKPIbining alohida tashkil etilgan qismi hisoblanadi.
Xavf egasi	Tashkiliy tuzilma rahbari bo'lib, uning mas'uliyat sohasida xavf paydo bo'lishi mumkin va u ushbu xavfni o'z vaqtida aniqlash, baholash, monitoring qilish va boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mas'ul hisoblanadi.
Xavfni baholash	Korxona maqsadlariga xavfning ehtimoli va ta'sirini aniqlash jarayoni bo'lib, umumiy xavf darajasini belgilash va ustuvorliklarni aniqlash imkonini beradi
Profilaktik chora-tadbirlar	Xavf sodir bo'lishidan oldin uning ehtimoli yoki oqibatlarini darajasini kamaytirishga qaratilgan choralar
Xavflar reestri	Xavflarni boshqarishning barcha darajalarda identifikatsiya qilish, baholash, qayta baholash va monitoring qilish amalga oshiriladigan yagona yozuv shakli
Xavf-appetiti	Strategik va operatsion maqsadlarga erishishda Korxona o'z resurslari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda qabul qilishga tayyor bo'lgan xavf darajasi . Masalan: Korxona foydaning 10 %idan ortiq bo'lmagan yo'qotishlarga yo'l qo'yishga tayyor.
Xavf darajasi	Xavf oqibatlarini va yuzaga kelish ehtimoli kombinatsiyasini ifodalovchi miqdoriy yoki sifat ko'rsatkichi
Xavfni baholash	Korxona maqsadlariga xavfning ehtimoli va ta'sirini aniqlash jarayoni bo'lib, u xavflarning umumiy darajasini aniqlash hamda ularni ustuvorlashtirish imkonini beradi.
KRI paneli	Korxonadagi asosiy xavf ko'rsatkichlarining (KRI) joriy holati va statusini aks ettiruvchi vosita.
KRI pasporti	Asosiy xavf ko'rsatkichlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi hujjat: o'lchov birligi, hisoblash formulasi, porog (chegaraviy) darajasi, o'lchash davriyligi va yo'nalishi.
Xavf-tolerantlik darajasi	Korxona hozirgi nazorat va xavfni kamaytirish choralari amalga oshirilgandan so'ng qabul qilishga tayyor bo'lgan xavf darajasi , shu bilan birga xavf-appetit chegarasidan oshmasligi va qonunchilik hamda me'yoriy talablarga muvofiq bo'lishi kerak. Amalda, xavf-tolerantlik KPIlarning bajarilishi va uning ruxsat etilgan chegaralariga muvofiq nazorat qilish imkonini beradi. Masalan: Ma'lum bir loyihada byudjetdan oshgan ruxsat etilgan xarajatlar – 5 % dan ortmasligi.
Xavf omili (xavf-faktor)	Xavfning yuzaga kelishiga olib keladigan sabablar ko'rinadigan sharoitlar, holatlar va vaziyatlar.
3.2 Qisqartmalar	
AJ	Aksiyadorlik jamiyati
KPI	Asosiy faoliyat ko'rsatkichlari (Key Performance Indicators, KPI)
KRI	Asosiy xavf ko'rsatkichlari (Key Risk Indicator)
XBB	Xavflarni boshqarish bo'limi
XBT	Xavflarni boshqarish tizimi
ESG	Atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ omillar (Environmental, Social and Governance)
COSO ERM	Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission – Enterprise Xavf Management, korxonalarda xavflarni boshqarish konsepsiyasi
S&P	Standard & Poor's – xalqaro reyting agentligi

CAPEX	Capital Expenditures – kapital xarajatlar
NPV	Net Present Value – sof joriy qiymat
IRR	Internal Rate of Return – ichki rentabellik darajasi
WACC	Weighted Average Cost of Capital – o‘rtacha vaznli kapital qiymati

4. HAVOLA HUJJATLARI

4.1 Ushbu Siyosat O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq hamda quyidagi xalqaro standartlar va korxona ichki hujjatlari talablari asosida ishlab chiqilgan:

- ISO 31000:2018 “Xavflarni boshqarish bo‘yicha qo‘llanma”
- COSO ERM: Korxona Xavflarni Bashqarish Tizimi – Strategiya va samaradorlik bilan integratsiyalash, 2017
- «Navoiyazot» AJ ning Xavflarni boshqarish siyosati
- «Navoiyazot» AJ ning Xavflarni boshqarish qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomi
- «Navoiyazot» AJ ning Audit qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomi
- Xavflarni aniqlash va baxolash metodikasi

5. QO‘LLASH UCHUN MAS’UL SHAXSLAR

5.1. Xavflarni boshqarish bo‘limi (XBB)

- Xavf-appetitini aniqlab va monitoring jarayonini tashkil qiladi;
- Xavf egalari uchun Xavf-tolerantlik darajalari va asosiy xavf ko‘rsatkichlarini (KRI) aniqlash va monitoring qilish bo‘yicha metodik yordam ko‘rsatadi;
- Korxonaning barcha tuzilma bo‘linmalari bilan o‘zaro aloqani muvofiqlashtiradi;
- Tashqi va ichki omillar o‘zgarganda xavf-appetitini tuzatish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlaydi;
- Ushbu Metodika talablariga rioya qilinishini nazorat qiladi;
- Xavf-appetiti, xavf-tolerantlik darajasi va KRI bo‘yicha ma’lumotlarni konsolidatsiya qiladi va qo‘mitaga hisobot va materiallar shaklida taqdim etadi.

5.2. Xavf egalari (tashkiliy tuzilma rahbarlari)

- Ushbu Metodika asosida xavf-tolerantlik darajasi va KRI ni aniqlaydi;
- Korxona xavf-appetitini kelishish va yangilash jarayonida ishtirok etadi;
- O‘z mas’uliyati doirasida xavflarni boshqarish tadbirlarini amalga oshiradi;
- Zarur ma’lumot va muntazam hisobotlarni XBBga taqdim etadi.
- Xavf egalari har chorakda XBBga biriktirilgan xavflar bo‘yicha dolzarb ma’lumotlarni hamda belgilangan xavf-tolerantlik darajalari va KRI dan amaldagi og‘ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadilar. Ushbu ma’lumotlar asosida XBB har yili konsolidatsiyalangan xavf-appetitini hisoblaydi va yangilaydi.

5.3. Xavflarni boshqarish qo‘mitasi (Ijro organi tarkibidagi)

- XBTni amalga oshirishni muvofiqlashtiradi va xavflarni boshqarish siyosati, xavflarni aniqlash va baholash metodikasi hamda ushbu Metodika talablariga rioya qilinishini nazorat qiladi;
- Asosiy xavflar, KRI qiymatlari va hodisalar bo‘yicha hisobotlarni ko‘rib chiqadi va tahlil qiladi;

- Boshqaruvga xavf-appetiti qiymatlari, asosiy xavflar bo'yicha xavf-tolerantlik darajalari va KRI ni muhokama qiladi va tavsiyalar beradi;
- Birinchi va ikkinchi bo'g'in tadbirlarining samaradorligini baholaydi va XBTni takomillashtirishga tashabbus ko'rsatadi;
- Xavf-siyosati va strategik xavflar bo'yicha Kuzatuv kengashi uchun ma'lumotlar va tavsiyalar tayyorlaydi.

5.4. Ijro organi rahbari (Boshqaruv)

- Xavflarni boshqarish qo'mitasi tavsiya etgan xavf-appetiti, asosiy xavflar bo'yicha xavf-tolerantlik darajalari va KRI qiymatlarini dastlab tasdiqlaydi;
- Xavflarni kamaytirish tadbirlarini amalga oshirish uchun resurs ajratilishini ta'minlaydi;
- Xavf monitoring natijalarini ko'rib chiqadi va strategik maqsadlarga erishish uchun zarur tuzatish choralarini tasdiqlaydi.

5.5. Audit qo'mitasi

- Xavf-appetiti qiymatlari, asosiy xavflar bo'yicha xavf-tolerantlik darajalari va KRIning ko'rib chiqadi.

5.6. Kuzatuv kengashi

- Xavf-appetiti bayonoti, asosiy xavflar bo'yicha xavf-tolerantlik darajasi va KRIning ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;
- Xavflarni boshqarish tizimi samaradorligi va Boshqaruv hamda Qo'mita faoliyati natijalarini nazorat qiladi.

• **6.1 Korxonaning barcha xodimlari** belgilangan xavf-appetiti va xavf-tolerantlik darajalarini qo'llab-quvvatlashda ishtirok etadilar. Har bir xodim o'z tarkibiy bo'linmasi faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavflar haqida o'z bo'linmasi rahbarini o'z vaqtida xabardor qilishi shart. Tuzilma rahbarlari ushbu ma'lumotlarning Xavflarni boshqarish bo'limiga (XBB) yetkazilishini ta'minlaydilar.

• **6.4** Xavf-appetit va xavf-tolerantlik darajalarini qayta ko'rib chiqish kamida yiliga bir marta yoki strategiya, bozor sharoitlari yoxud tashqi muhit o'zgargan taqdirda tez-tez amalga oshiriladi.

6. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu metodika «Navoiyazot» AJ korxonasida xavf appetiti va xavf tolerantligi darajasini aniqlash prinsiplari va yondashuvlarini belgilaydi, shu orqali asosiy xavflarni baholash va monitoring qilishda yagona usulni ta'minlaydi.

7. XAVF-APPETITI VA XAVF-TOLERANTLIK DARAJASI

Xavf-appetitini ishlab chiqish

7.1 Korxonaning xavf-appetiti Korxona strategik va operatsion maqsadlariga erishish uchun mavjud resurslar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda qabul qilishga tayyor bo'lgan xavf darajasini belgilaydi.

7.2 Korxonaning xavf-appetiti har yili konsolidatsiyalangan asosda hisob-kitob yo'li bilan aniqlanadi va quyidagi xususiyatlarga ega:

–Korxonaning strategiyasini, jumladan maqsadlari, biznes-rejalari, moliyaviy cheklovlari va manfaatdor tomonlarning kutilmalarini aks ettiradi;

- Faoliyatning barcha asosiy jihatlarini (yo‘nalishlarini)ni qamrab oladi;
- Xavfni qabul qilish istagi va imkoniyatini inobatga oladi;
- Korxonaning xavfga bo‘lgan munosabatini belgilaydi;
- Biznes muhiti va bozor sharoitlaridagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda davriy ravishda qayta ko‘rib chiqiladi;

- Xavflarni samarali monitoring qilishni talab etadi;

- Miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

7.3 Xavf-appetitini belgilashdan ko‘zlangan asosiy maqsad — xavf egalari faoliyatiga xos bo‘lgan xavf darajalarini nazorat qilishni ta‘minlash hamda xavflarga samarali javob berish jarayonini shakllantirishdir.

7.4 Ushbu maqsad quyidagi vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi:

Korxona faoliyatiga xos bo‘lgan barcha turdagi xavflar yuzaga kelganda (muayyan ehtimollik bilan) maksimal yo‘qotishlar yoki boshqa salbiy oqibatlarini aniqlash;

Xavf egalari va Korxona boshqaruv organlarining qabul qilinmaydigan xavflar ro‘yxatiga nisbatan kutishlarini aniqlash;

Monitoring va nazorat natijalari bo‘yicha muntazam hisobotlarni taqdim etish;

Xavf-appetitini muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqish.

7.5 Tasdiqlangan xavf-appetiti tashqi muhit o‘zgarganda (masalan, energiya resurslari narxlarining keskin oshishi, qonunchilikdagi o‘zgarishlar, inqirozli vaziyatlar) hamda Korxona strategiyasi o‘zgarganda qayta ko‘rib chiqiladi. Tasdiqlangan xavf-appetiti har yili yangi moliyaviy yil boshlanishidan oldin qayta ko‘rib chiqiladi va yangilanadi. Xavf-appetitini qayta ko‘rib chiqish XBB tomonidan amalga oshiriladi va tegishli organlarga ko‘rib chiqish uchun kiritiladi.

7.6 Xavf-appetitini ko‘rib chiqishda moliyaviy barqarorlik tamoyillarini buzmaydigan xavf-appetiti darajasi belgilanadi. Shu tariqa, konsolidatsiyalangan darajada qarz yuklamasi qanchalik yuqori bo‘lsa, xavf-appetiti shunchalik past bo‘ladi. Bunday yondashuv xavflar amalga oshganda yo‘qotishlarni qoplash uchun yetarli likvidlik zaxirasini ta‘minlaydi.

7.7 Xavf-appetiti miqdoriy va sifat jihatdan belgilanishi mumkin.

Miqdoriy holatda mumkin bo‘lgan xavfning mutlaq qiymati yoki nisbiy qiymati (masalan, rejalashtirilgan ko‘rsatkichdan ruxsat etilgan og‘ish) belgilanadi. Bunda xavf-appetit Korxona maqsadlariga bog‘liq holda aniqlanadi. Ushbu maqsadlar belgilangan moliyaviy ko‘rsatkichlarga erishish, moliyaviy me‘yorlarga rioya qilish va Korxona faoliyatining boshqa ko‘rsatkichlariga erishishni o‘z ichiga olishi mumkin.

7.8 Konsolidatsiyalangan miqdoriy xavf-appetiti kelgusi moliyaviy yil uchun prognoz qilingan **sof foydaning 10% miqdorida belgilanadi**. Xavflarni boshqarish bo‘limi tarkibiy bo‘linmalardan zarur ma‘lumotlarni so‘rab oladi, ularni konsolidatsiya qiladi va kelgusi davr uchun xavf-appetitini hisoblaydi. Xavf-appetitining yakuniy qiymati belgilangan tartibda tasdiqlanishi lozim. Qo‘shimcha ravishda, aniqlangan konsolidatsiyalangan xavf-appetiti (kelgusi moliyaviy yil prognoz sof foydasining 10%)

doirasida faoliyatning alohida turlari bo'yicha — operatsion, moliyaviy va investitsion — xavf-appetit darajalari belgilanishi mumkin.

7.9 Xavfni miqdoriy ifodalash imkoni bo'lmagan hollarda xavf-appetitining sifat ifodasi qo'llaniladi. Bunday holatda xavf-appetit tavsifiy (deskriptiv) usulda belgilanadi.

7.10 Korxona rivojlanishi, strategik loyihalarning amalga oshirilishi va moliyaviy ko'rsatkichlarning aniqlashtirilishi jarayonida xavf-appetitini hisoblash metodikasi hamda belgilangan limitlar qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

7.11 Korxonaning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyati bo'yicha xavf-appetiti qiymatlari XBB-M-01-01 ilovasida keltirilgan.

Xavf-tolerantlikni hisoblash

7.12 Korxonada samarali monitoringni amalga oshirish va xavf-appetiti darajasining oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida xavf-tolerantlik qo'llaniladi. Xavf-tolerantlik mos keluvchi maqsadlar bilan bir xil o'lchov birliklarida o'lchanadi.

7.13 Korxona Kuzatuv kengashining qarori bilan asosiy xavflar bo'yicha xavf-tolerantlik darajalari quyidagi ikki asosiy yondashuv asosida tasdiqlanadi:

- **Obyektiv yondashuv.** Amaldagi qonunlar, davlat nazorat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari hamda ichki me'yoriy hujjatlar talablarini hisobga oladi. Ayrim hollarda asosiy xavflar bo'yicha xavf-tolerantlik darajalari tartibga soluvchi hujjatlar va davlat nazorat organlarining normativ hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Nazorat organlari talablari o'zgargan taqdirda, tegishli chegaraviy (porog) darajalar qayta ko'rib chiqilishi lozim;

- **Subyektiv yondashuv.** Asosiy xavflar bo'yicha xavf-tolerantlik darajalari tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining tajribasi va professional mulohazalariga, shuningdek Xavflarni boshqarish bo'limi (XBB) bilan birgalikdagi baholashga asoslanadi. Ushbu yondashuv doirasida tolerantlik darajalari so'rovnomalar o'tkazish, xizmat yozishmalarini yuborish, shuningdek avvalgi hodisalar va monitoring ma'lumotlarini tahlil qilish orqali belgilanadi. Bu usul bo'linmalar faoliyatining o'ziga xos jihatlari va amaliy tajribani inobatga olgan holda, masalan, maksimal ruxsat etilgan operatsion yo'qotishlar, ishlab chiqarish to'xtab qolishlari xavflari yoki reputatsion xavflar bo'yicha chegaraviy qiymatlarni belgilash imkonini beradi.

7.14 Korxonaning asosiy xavflari bo'yicha xavf-tolerantlik darajalarini aniqlash jarayoni XBB tomonidan, xavf egalarining bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

7.15 Asosiy xavflar bo'yicha xavf-tolerantlik darajalari doirasida faoliyat yuritish rahbariyatga xavf-appetiti darajasining oshib ketmasligiga nisbatan yuqori ishonchni ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, Korxonaga belgilangan maqsadlarga erishishda yuqori darajadagi ishonch beradi.

7.16 Xavf-tolerantlik darajalari Xavflarni boshqarish qo'mitasi, Boshqaruv va Audit qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi hamda belgilangan xavf-appetiti darajalari bilan birgalikda Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

7.17 Korxona uchun belgilangan xavf-tolerantlik darajalari XBB-M-01-02 ilovasida keltirilgan. Xavflar reyestri shakllantirilishi va yangilanib borilishi jarayonida xavf-tolerantlik darajalari to'ldirilishi (kengaytirilishi) mumkin.

Xavf- tolerantlik darajalarini monitoring qilish

7.18 Xavf-appetiti va xavf-tolerantlik tasdiqlangandan so'ng, ularning monitoringi amalga oshiriladi. Yangi xavflar yuzaga kelganda yoki aniqlanganda, shuningdek xavflar amalga oshirilganda, XBB tomonidan xavf-tolerantlik darajalari qayta ko'rib chiqiladi. Monitoring natijalari mavjud choraklik xavflar bo'yicha hisobotlar doirasida aks ettiriladi.

7.19 XBB har chorakda Korxonaning asosiy xavflari bo'yicha xavf-tolerantlik darajalariga rioya etilishini quyidagi tartibda monitoring qiladi:

- tezkor monitoringni ta'minlash maqsadida asosiy xavflar bo'yicha yillik chegaraviy xavf-tolerantlik qiymati qisqaroq davrlarga (choraklar bo'yicha) taqsimlanadi. Ushbu davriylik mavjud boshqaruv hisobotlari va ularni taqdim etish muddatlari asosida belgilanadi;

- asosiy xavflar bo'yicha xavf-tolerantlik darajalarining rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan fakt bo'yicha og'ishlari taqqoslanadi;

- Agar og'ishlar bo'lsa, tegishli xavf egasi bilan birgalikda sabablar aniqlanadi va ta'sirini kamaytirish uchun qo'shimcha oldindan chora-tadbirlar ko'riladi, shu orqali har bir xavf bo'yicha amaldagi tolerantlik darajasi belgilangan rejalashtirilgan darajaga muvofiq holatga keltiriladi.

7.20 Xavf-tolerantlik darajalari monitoringi va xavf-appetitiga rioya etilishi natijalari XBBning xavflar bo'yicha choraklik hisobotiga kiritiladi hamda Xavflarni boshqarish qo'mitasi majlislarida ko'rib chiqiladi. Qo'mita XBB tomonidan taqdim etilgan amaldagi og'ishlar, aniqlangan hodisalar va ko'rilgan tuzatish choralari o'ldirish ma'lumotlarni tahlil qiladi, shuningdek belgilangan limitlar oshib ketgan holatlarda xavf-tolerant darajalarini yangilash va javob choralari belgilash bo'yicha Boshqaruvga tavsiyalar qiladi.

7.21 Korxona Boshqaruvi, Xavflarni boshqarish qo'mitasi tavsiyalariga asoslanib, belgilangan xavf-appetitiga rioya etishni ta'minlashga qaratilgan tuzatish choralari va qarorlarni dastlabki tartibda tasdiqlaydi. Boshqaruv ushbu choralarni amalga oshirishni, ularning ijrosini nazorat qilishni ta'minlaydi hamda zarurat tug'ilganda limitlar yoki xavf-tolerantlik darajalarini qayta ko'rib chiqishni tashabbus qiladi. Xavf-appetiti holati va monitoring natijalari bo'yicha yakuniy hisobot Audit qo'mitasi va Kuzatuv kengashiga taqdim etiladi.

8. ASOSIY XAVF KO'RSATKICHLARI (KRI)

8.1 Asosiy xavf ko'rsatkichlari (keyingi o'rinlarda – KRI) xavflarni boshqarish tizimida muhim rol o'ynaydi va xavflarning yuzaga kelishini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. KRI — bu xavf appetitidagi (xavf darajasi)dagi o'zgarishlarni ko'rsatadigan va ularga o'z vaqtida javob berish imkonini beradigan indikatorlardir.

8.2 KRilar Korxona rahbariyatini muhim (asosiy) xavflar bo'yicha o'z vaqtida axborot bilan ta'minlash maqsadida ishlab chiqiladi.

8.3 KRilar xavflar xaritasining to‘q qizil, qizil va sariq zonalarida joylashgan xavflar bo‘yicha kamida majburiy tartibda ishlab chiqilishi lozim, bu esa yuqori va o‘rta darajadagi barcha xavflarni boshqarishni ta‘minlaydi.

8.4 Xavflarni boshqarish tizimining (XBT) samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash maqsadida Korxona xavf egalari va Xavflarni boshqarish bo‘limi (XBB) xavflar va ularning omillarini aniqlash, shuningdek, o‘zgarishi xavfning ehtimoliy amalga oshishini yaqqol ko‘rsatib beruvchi KRilarni belgilash bo‘yicha tizimli ish olib borishlari lozim.

8.5 Samarali xavflarni boshqarish tizimini shakllantirishda KRilar Korxona faoliyatida foydalaniladigan ichki va tashqi axborotlarga asoslanishini inobatga olish zarur.

8.6 KRI monitoringi uchun foydalaniladigan axborot quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- Qabul qilish uchun oddiylik va shaffoflik;
- Yig‘ish va tahlil qilishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi;
- Tezkor javob choralarini ko‘rish imkonini beruvchi operativ taqdim etilishi;
- Vaqt davomida dinamikani tahlil qilish imkoniyati.

KRI ni aniqlash tartibi

8.7 KRilarni ishlab chiqish va joriy etish Korxonada xavflarni identifikatsiya qilish va baholash ishlari yakunlangandan so‘ng XBB tomonidan xavf egalari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Shunday qilib, KRI ishlab chiqilishidan oldin Korxonada quyidagi ishlar bajarilgan bo‘lishi shart:

- Qisqa va uzoq muddatli strategik maqsadlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavflar va ularning omillarini identifikatsiya qilish;
- Xavflarni baholash (miqdoriy va sifat jihatidan).

8.8 Korxonada xavflarni samarali monitoring qilish maqsadida KRilar xavf omillarini tahlil qilish asosida aniqlanadi. Har bir asosiy xavf bo‘yicha Korxonaga nisbatan ichki yoki tashqi bo‘lishi mumkin bo‘lgan tegishli xavf omillari belgilanadi. Xavf omillari o‘lchanish imkoniyati nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Har bir xavf omili bo‘yicha o‘lchov birliklari va o‘lchash davriyligi aniqlanadi, ular koeffitsientlar, foizlar, sonlar va boshqa shakllarda ifodalanishi mumkin.

8.9 KRI va xavf omili o‘rtasidagi bog‘liqlik qanchalik kuchli bo‘lsa, rahbariyatda xavfga o‘z vaqtida javob berish uchun shuncha ko‘p vaqt bo‘ladi. Shu sababli KRI ni aniqlash jarayoni Korxona faoliyatiga o‘tmishda (yoki hozirgi paytda) salbiy ta‘sir ko‘rsatgan xavflarni o‘rganishdan boshlanadi. Xavfni o‘rganish natijalari asosida uning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan omillar tahlil qilinadi.

8.10 KRilarni aniqlash va hisoblashda Korxonaning turli tarkibiy bo‘linmalari tomonidan o‘z faoliyati davomida allaqachon shakllantirilayotgan axborotlar, moliyaviy va/yoki ishlab chiqarish ko‘rsatkichlaridan foydalanish mumkin.

8.11 Qo‘shimcha ravishda, KRilar Korxona raxbariyatining asosiy faoliyat ko‘rsatkichlariga (KPI) asoslanishi mumkin.


8.12 KPI ni xavf ko'rsatkichi sifatida qo'llash shundan iboratki, ko'rsatkichning mohiyati (KRI yoki KPI) uni kim va qanday maqsadda qo'llayotganligiga bog'liq. Shunday qilib, ayrim ko'rsatkichlarni (nomi, hisoblash formulasi va boshqalar) kichik darajada o'zgartirish orqali KPI xavf ko'rsatkichi sifatida ishlatilishi mumkin.

8.13 KPI xavf indikatorini sifatida qo'llanilganda, ushbu ko'rsatkich yakuniy KRI bo'lishini, ya'ni allaqachon amalga oshgan xavf haqida axborot berishini yodda tutish zarur. Oldini olish choralari sifatida hisobot davri davomida KPI qiymatlarining o'zgarish dinamikasini kuzatish tavsiya etiladi.

8.14 Asosiy xavf ko'rsatkichlari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim:

- o'lchanish va taqqoslanish imkoniyati;
- axborotning mavjudligi va iqtisodiy maqsadga muvofiqligi;
- qabul qilish uchun soddalik.

8.15 Keyingi bosqichda strategik maqsadlar, xavflar va asosiy xavf ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanadi (8.1-rasmga qarang).



8.1-rasm. Strategik maqsadlar, xavflar va asosiy xavf ko'rsatkichlari (KRI) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

8.16 O'zaro bog'liqliklar tuzilmasini shakllantirish KRI dagi o'zgarishlar Korxonaning muayyan strategik maqsadlariga erishishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavflarning yuzaga kelishini qanchalik darajada signal berishini kuzatish imkonini beradi. O'z navbatida, bu rahbariyatga xavfli hodisalar yuzaga kelishi to'g'risida olingan axborot asosida Korxona faoliyatini o'z vaqtida tuzatish imkonini yaratadi.

8.17 Korxonaning Xavflar reestri, xavf-appetiti va xavf-tolerantlik darajasi har yili qayta ko'rib chiqilib yangilanishi doirasida, Xavflarni boshqarish bo'limi (XBB) KRI larni qayta ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi.

8.18 KRI monitoringi maqsadida chegaraviy (porog) darajalar qo'llaniladi, ularning oshib ketishi rahbariyat uchun xavflarni boshqarish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish zarurligi haqida signal hisoblanadi.

8.19 Chegaraviy daraja oshib ketganda, xavf egasi XBB bilan birgalikda ko'rsatkichlarning rejalashtirilgan darajadan chetga chiqish sabablarini tahlil qiladi va

xavfli hodisaning amalga oshishini oldini olish bo'yicha keyingi choralar zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

8.20 Agar o'tgan davrlar bo'yicha xavfli hodisalar yuzaga kelganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud bo'lsa, statistik yondashuvdan foydalanish lozim bo'lib, bunda chegaraviy darajalar tarixiy ma'lumotlar asosida hisoblab chiqilishi mumkin.

8.21 Statistik ma'lumotlar mavjud bo'lmagan taqdirda, KRIning chegaraviy darajalari quyidagi yondashuvlar asosida belgilanishi mumkin:

- **KPIni KRI sifatida qo'llash.** KPIni kichik darajada modifikatsiya qilish orqali uni KRI sifatida qo'llash mumkin. Shunga mos ravishda, KPI uchun belgilangan chegaraviy darajalar KRIning chegaraviy darajalarini aniqlash uchun asos bo'lishi mumkin.

- **Obyektiv yondashuv** — O'zbekiston Respublikasi qonunlari, davlat nazorat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari hamda Korxonaning ichki me'yoriy hujjatlari talablariga asoslanib;

- **Subyektiv yondashuv** — tegishli kompetensiyalarga ega bo'lgan Korxonaning asosiy xodimlari o'rtasida so'rovnoma yoki anketa o'tkazish asosida;

- **Ekspert fikriga asoslangan yondashuv.** Ekspertlar o'zlarining tajriba va bilimlariga asoslanib KRI bo'yicha chegaraviy darajani belgilaydilar. Ushbu maqsadda XBB xavf egalari, Xavflarni boshqarish qo'mitasi a'zolari yoki tarkibiy bo'linmalar o'rtasida so'rovnoma yoki anketa o'tkazishi mumkin. Ushbu yondashuvda ekspertlar KRI bo'yicha "xavf-appetiti" darajasini aniqlaydilar.

8.22 Asosiy xavf ko'rsatkichlarini aniqlashning yakuniy bosqichi — ularni tasdiqlash jarayoni bo'lib, bunda barcha KRilar va ularning chegaraviy darajalari avval Xavflarni boshqarish qo'mitasida ko'rib chiqiladi, so'ngra Korxona Boshqaruviga taqdim etiladi, keyinchalik Audit qo'mitasida muhokama qilinadi va navbatdagi yil uchun Xavflar reestri hamda xavf-appetit bilan bir vaqtda Korxonaning Kuzatuv kengashi tomonidan yakuniy tasdiqlanadi.

8.23 Korxona uchun belgilangan KRilar XBB-M-02-03 ilovasida keltirilgan. Xavflar reestri shakllantirilishi va yangilanib borilishiga qarab KRilar to'ldirib borilishi mumkin.

KRI monitoringi

8.24 XBB xavf egalari bilan birgalikda KRilar asosida xavflarni quyidagi algoritmgaga muvofiq monitoring qiladi:

- KRI pasportida belgilangan davriylikda (monitoring davriyligi xavfning xususiyati, ma'lumotlar tabiati va boshqaruv hisobotlari muntazamligidan kelib chiqib aniqlanadi) xavf egalari KRIning joriy darajasi bo'yicha ma'lumotlarni XBBga taqdim etadilar. KRIning joriy darajasini aniqlashda Korxonada tayyorlanadigan ichki axborotlar (masalan, boshqaruv hisobotlari va boshqalar), shuningdek tashqi axborotlar (masalan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, indekslar, reytinglar va boshqalar)dan foydalaniladi;

- mavjud ma'lumotlar asosida XBB KRIning joriy darajasini uning chegaraviy darajasi bilan solishtiradi. KRI chegaraviy darajasidagi o'zgarish holati KRI panelida "Status" ustunida uchta rang orqali aks ettiriladi (ushbu Metodikaga XBB-M-01-05 ilovaga qarang):

- qizil rang** — xavfning amalga oshish ehtimoli oshganini bildiradi;
- sariq rang** — KRIning joriy qiymati chegaraviy darajaga teng ekanini ko‘rsatadi;
- yashil rang** — KRI qiymati ruxsat etilgan chegaralar doirasida ekanini anglatadi.

KRI bo‘yicha hisobot

8.25 Asosiy xavf ko‘rsatkichlari (KRI) bo‘yicha hisobot Korxonaning choraklik xavflar bo‘yicha hisobotining tarkibida shakllantiriladi. KRI bo‘yicha hisobdorlik xavflarni boshqarish tizimidagi asosiy jarayonlardan biri bo‘lib, hisobot sanasiga xavfning amalga oshish ehtimolini baholash imkonini beradi. Xavfning yuzaga kelishi ehtimoli to‘g‘risidagi o‘z vaqtida olingan axborot korporativ darajada xavflarni boshqarish uchun samarali vosita hisoblanadi. Xavflar bo‘yicha hisobdorlik manfaatdor tomonlar o‘rtasida axborot almashinuvini ta‘minlaydi hamda asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ko‘maklashadi.

8.26 Asosiy xavf ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisobot shakli KRI Paneli ko‘rinishida taqdim etiladi (XBB-M-01-05 ilova). KRI Paneli Korxonaning muhim xavflarini monitoring qilish uchun samarali vosita hisoblanadi. KRI Paneli ko‘rinishidagi hisobot KRI holatining chegaraviy darajaga nisbatan qanday o‘zgarayotganini yaqqol ko‘rsatib beradi. KRI Paneli xavf egalari tomonidan **KRI Pasportlari bo‘yicha** taqdim etilgan ma‘lumotlar asosida Xavflarni boshqarish bo‘limi (XBB) tomonidan shakllantiriladi.

8.27 KRI Panelini ishlab chiqish jarayoni xavf egalari va XBB tomonidan har bir KRI uchun Pasport tuzishdan boshlanadi (XBB-M-01-04 ilova). Pasport ikki qismdan iborat bo‘ladi: axborot (tavsiflovchi) va hisob-kitob qismi. Pasportning axborot qismida asosiy xavf ko‘rsatkichlarining tavsiflari keltiriladi. KRIning biror tavsifi o‘zgargan taqdirda, Pasportning axborot qismiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi lozim.

8.28 Pasportning hisob-kitob qismi KRIni ma‘lum bir davri uchun (o‘lchash davriyligiga qarab — oy / chorak / yil) hisoblashni o‘z ichiga oladi. KRIning joriy darajasi bo‘yicha olingan natija KRI Panelining “Status” ustunida belgilangan chegaraviy daraja bilan solishtiriladi.

8.29 Keyinchalik barcha KRI Pasportlaridan olingan ma‘lumotlar XBB tomonidan yagona KRI Paneliga konsolidatsiya qilinadi va ushbu Panel choraklik hisobot doirasida Xavflarni boshqarish qo‘mitasiga, Korxona Ijro organi rahbariga, Audit qo‘mitasiga hamda Kuzatuv kengashiga taqdim etiladi.

8.30 KRI holati bo‘yicha hisobotni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra, Xavflarni boshqarish qo‘mitasi, Boshqaruv va Audit qo‘mitasining tavsiyalari asosida Korxonaning Kuzatuv kengashi ogohlantiruvchi choralarni tuzatish va/yoki xavflarni boshqarish bo‘yicha muqobil choralarni ishlab chiqish zarurligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

9. ILOVALAR

Ilova identifikatsion raqami (kodi)	Ilova nomi
XBB-M-01-01	Korxonaning xavf-appetiti bayonoti
XBB-M-01-02	«Navoiyazot» AJning asosiy xavflar bo'yicha tolerantlik darajasi (Xavflar reestri shakllantirilishi bilan to'ldiriladi)
XBB-M-01-03	«Navoiyazot» AJning asosiy xavflar bo'yicha asosiy xavf ko'rsatkichlari (Xavflar reestri shakllantirilishi bilan to'ldiriladi)
XBB-M-01-04	KRI Pasporti shakli
XBB-M-01-05	KRI Paneli shakli (_____holati bo'yicha)

Korxonaning xavf-appetiti bayonoti

1. Operatsion xavf-appetiti

Ko'rsatkichlar	Cheklovlar / Izohlar
Operatsion samaradorlik	Kutilmagan xarajatlar (yo'qotishlar) korxonaning tasdiqlangan yillik xavf-appetitining 10% dan oshmasligi kerak, shu jumladan ekologik jarimalar va mehnatni muhofaza qilish xarajatlari.
Obro'ning barqarorligi	Obro'ga ta'sir qiluvchi salbiy hodisalar, shuningdek ishlab chiqarish xavfsizligi, ekologiya va jamoatchilik aloqalari bilan bog'liq salbiy voqealar qabul qilinmaydi.
Komplayens va ishbilarmonlik etikasi	• Har qanday korrupsiya holatlarini bartaraf etish, odob ahloq qoidalariga rioya qilish. • Antikorrupsion qonunchilik, mehnat kodeksi va korxonaning ichki normativ hujjatlariga rioya qilish.
O'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar	O'lim bilan tugaydigan baxtsiz hodisalarga nolinchi tolerantlik.
Ekologiya	Tasdiqlangan rejalar bo'yicha CO ₂ va boshqa tashlanmalarni kamaytirish.
Ijtimoiy barqarorlik	Korxona mavjud bo'lgan hududlarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash. Xodimlar huquqlarini himoya qilish, diskriminatsiya va mehnat sharoitlari yoki ishga qabul qilish qoidalarini buzishga yo'l qo'ymaslik.
Axborot xavfsizligi	• Axborot resurslari, AT, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va ishlab chiqarish tizimlarining yaxlitligi buzilishiga yo'l qo'ymaslik. • Maxfiy ma'lumotlarning yo'qolishi yoki boshqa ruxsatsiz oshkor qilinishini taqiqlash.

2. Moliyaviy xavf-appetiti

Ko'rsatkichlar	Cheklovlar / Izohlar
Korxonaning qarz yuki bo'yicha limitlari	“Markaziy bank qoidalar va soliq qonunchiligini inobatga olgan holda, qarz vositalarida belgilangan kovenantlarga rioya qilish. Istisno: muayyan kovenant shartlarini bajarmaslikka ruxsat beruvchi kreditorlarning ma'qullash xatlari (waivers)”
Hisobga olish	Biznes operatsiyalarining buxgalteriya va soliq hisobida to'g'ri aks ettirilishi.
Likvidlik	Asosiy qarzni to'lashdan oldin konsolidatsiyalangan erkin pul oqimini ijobiy holda saqlash, favqulodda holatlar va davlat moliya dasturlari bo'yicha kechikishlar bo'lmasligi shart.
Kredit reytingini saqlash	ESG ko'rsatkichlariga rioya qilgan holda, S&P, Moody's va Fitch kredit reytinglarini joriy yoki undan yuqori darajada saqlash.

3. Investitsion xavf-appetiti

Ko'rsatkichlar	Cheklovlar / Izohlar
Investitsion loyihalarni moliyalashtirishning barqaror tuzilmasi	-Loyihaning umumiy qiymatining 75% dan ortiq bo'lmagan kredit kapitali, imtiyozli davlat budjeti krediti bilan amalga oshirilayotgan loyihalardan tashqari. -O'z mablag'lari va kredit mablag'lari balansi majburiyligi. -Strategik ahamiyatga ega loyihalar uchun limitning vaqtinchalik oshishi (Kuzatuv kengashi qarori va asoslangan biznes-reja asosida bo'lishi mumkin).
Loyiha qiymati va amalga oshirish muddatlarini oshirmaslik	-Byudjetning oshishi +5% dan oshmasligi; +10% gacha faqat ob'ektiv sabablar bilan va rahbariyat roziligi bilan ruxsat etiladi. - Muddat buzilishi: standart loyihalar – 1 oygacha; yirik CAPEX loyihalari – 3–6 oygacha, asosli izoh bilan. - Belgilangan chegaradan oshish – tanqidiy buzilish, loyiha qayta ko'rib chiqilishi va rahbariyatga hisobot berilishi zarur.
Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik	-Loyiha ish o'rinlarini yaratishi/saqlashi, soliq tushumlarini oshirishi, infratuzilmani rivojlantirishi va jarayonlarni raqamlashtirishi kerak. - Samaralar miqdoriy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlanishi lozim (ish o'rinlari soni, ish haqi, mehnat unumdorligi, soliq tushumlari, mijozlar qamrovi, operatsiyalar vaqtining qisqarishi).
Moliyaviy samaradorlik	- NPV musbat bo'lishi (Net Present Value — bu loyihaning sof joriy qiymati)

Ko'rsatkichlar	Cheklovlar / Izohlar
	- $IRR > WACC$ bo'lishi. IRR (Internal Rate of Return — loyihaning ichki daromadlilik me'yori $>$ Weighted Average Cost of Capital — korxonaning kapital qiymatining o'rtacha og'irlashtirilgan narxi) -Loyihaning o'zini oqlash muddati belgilangan normativ me'yorlar doirasida bo'lishi shart (odatda 5–7 yil). - Yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar o'rtacha moliyaviy foyda bilan ruxsat etilishi mumkin.
Nazorat va hisobot	-Natijalarga erishish holati loyihaning asosiy bosqichlari yakunlangandan so'ng tekshiriladi. -Og'ishlar aniqlangan taqdirda, loyihani qayta ko'rib chiqish va tuzatuvchi chora-tadbirlarni qabul qilish talab etiladi. -Barcha og'ishlar har choraklik hisobotlarda qayd etiladi; loyiha rahbari tuzatuvchi harakatlar rejasini taqdim etadi.

“Navoiyazot” AJ asosiy xavflarga nisbatan tolerantlik darajasi
(Xavflar reestri shakllantirilishi davomida to‘ldiriladi)

Xavf №¹	Xavf kodi²	Maqsad³	Tolerantlik darajasi	O‘lchov davriyligi	O‘lchov birligi	Tolerantlik darajasi qiymati	Xavf nomi⁴
1	FR-01	Moliyaviy barqarorlik	Daromad bo‘yicha byudjetdan ruxsat etilgan og‘ish	choraklik	%	≤ 5%	Daromad yetishmovchiligi xavfi
2	FR-02	Investitsion loyihalar qiymati va muddatlarini bajarish	Tasdiqlangan loyiha qiymati va muddatlaridan ruxsat etilgan oshish	choraklik	% / oy	Qiymat bo‘yicha ≤ 5%, muddat bo‘yicha ≤ 2 oy	Investitsion loyihalar qiymati va muddatlaridan oshish xavfi
3	FR-03	Investitsion loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi	Investitsiya loyihasidan minimal ijobiy natijalar soni (xizmat sifati, raqamlashtirish, tarmoqni rivojlantirish)	yillik	fakt	≥ 1	Investitsiyalardan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik yo‘qligi xavfi
4	MMvaXTR-01	Mehnat xavfsizligi	O‘lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar soni	choraklik	hodisalar soni	0	Baxtsiz hodisalar xavfi
5	KR-01	Komplayens va odob ahloq qoidalari	Tasdiqlangan korrupsiya holatlari soni	choraklik	aniqlangan holatlar soni	0	Korrupsiya va ishbilarmonlik etikasini buzish xavfi
6	KR-01	Axborot xavfsizligi	Tanqidiy axborot xavfsizligi hodisalar soni	choraklik	hodisalar soni	0	Ma’lumotlar oqimi va tizim nosozliklari xavfi
7	S-01	Ijtimoiy barqarorlik	Xodimlar almashinuvi ruxsat etilgan og‘ish	choraklik	%	≤ 5%	Xodimlar aylanishi oshishi xavfi

1,2,4 Tasdiqlangan Xavflar reestriga muvofiq beriladi

3 Korxonaning belgilangan maqsadlariga muvofiq ko‘rsatiladi

«Navoiyazot» AJ asosiy xavflari bo'yicha asosiy xavf ko'rsatkichlari (KRI) –
(Xavflar Reestri shakllantirilishi jarayonida to'ldiriladi)

t/r ⁵	Xavf kodi ⁶	Maqsad ⁷	Xavf nomi ⁸	KRI kodi	KRI nomi	Hisoblash formulasi	O'lchash davriyligi	O'lchov birligi	Cheklov darajasi	Ma'lumot manbai	Mas'ul shaxs
1	FR-01	Moliyaviy barqarorlik	Daromad yetarli olinmasligi xavfi	KRI-3	Rejalashtirilgan byudjetdan haqiqiy daromadning farqi	(Haqiqiy – Reja) / Reja × 100%	choraklik	%	≤ 5%	Moliyaviy hisobotlar	Buxgalteriya va hisobot bo'limi
2	FR-02	Investitsiya loyihalari qiymati va muddati	Investitsiya loyihalari qiymati va muddatining oshishi xavfi	KRI-9	Qiymat va muddat oshgan loyihalar ulushi	(Qiymati/muddati oshgan loyihalar soni / Umumiy loyihalar soni) × 100%	choraklik	%	≤ 10%	Investitsiya loyihalarining amalga oshirilish hisobotlari	Investitsiyalar va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi
3	FR-03	Investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi	Investitsiyalardan ijtimoiy-iqtisodiy effekt yo'qligi xavfi	KRI-10	Ijobiy effektga ega investitsiya loyihalari ulushi	(Tasdiqlangan effekti bo'lgan loyihalar soni / Umumiy loyihalar soni) × 100%	yillik	%	≥ 80%	Investitsiya loyihalari hisobotlari, loyihalar KPI	Investitsiyalar va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi
4	MMvaXTR-01	Mehnat xavfsizligi	Baxtsiz hodisalar xavfi	KRI-6	O'lim bilan yakunlangan baxtsiz hodisalar soni	Hisobot davridagi hodisalar soni	choraklik	dona	0	OT va PB hisobotlari	Mehnat va xavfsizlik bo'limi
5	KR-01	Komplayens va ishbilarmonlik etikasi	Korrupsiya va ishbilarmonlik etikasi buzilishlari xavfi	KRI-8	Komplayens/etika buzilishlarining aniqlangan holatlari soni	Hisobot davrida aniqlangan holatlar soni	choraklik	dona	0	Komplayens va korrupsiyaga qarshi xizmat / Ichki audit xizmati hisobotlari	Komplayens va korrupsiyaga qarshi xizmat, Ichki audit xizmati

t/r ⁵	Xavf kodi ⁶	Maqsad ⁷	Xavf nomi ⁸	KRI kodi	KRI nomi	Hisoblash formulasi	O'lchash davriyligi	O'lchov birligi	Cheklov darajasi	Ma'lumot manbai	Mas'ul shaxs
6	OR-01	Axborot xavfsizligi	Ma'lumotlarning oqishi va tizim buzilishlari xavfi	KRI-5	Tanqidiy axborot xavfsizligi hodisalari soni	High/critical darajadagi hodisalar soni	choraklik	dona	0	AX monitoringi natijalari	Axborot xavfsizligi bo'limi
7	PR-01	Ijtimoiy barqarorlik	Kadrlar oqimi oshishi xavfi	KRI-7	Kadrlar oqimi	(Ishdan bo'shaganlar / O'rtacha shtat soni) × 100%	choraklik	%	≤ 5%	HR hisobotlari	HR bo'limi

Izoh:

5,6,8 Tasdiqlangan Xavflar reestriga muvofiq belgilanadi

7 Korxonaning belgilangan maqsadlariga muvofiq ko'rsatiladi

-

KRI Pasport shakli

KRI kodi	KRI nomi	Hisoblash formulasi	O'lchash davriyligi	O'lchov birligi	KRI yo'nalishi (xavf yuzaga kelishini ko'rsatadi)	Cheklov darajasi	Ma'lumot manbai	KRI bo'yicha ma'lumotni taqdim etish uchun mas'ul (xavf egasi)
KRI identifikatsion raqami	Asosiy xavf ko'rsatkichi nomi	Formula, uning elementlari tavsifi va ma'lumot manbai	KRI o'lchanadigan davriyligi(choraklik / yillik)	KRI o'lchanadigan birliklari (dona / % / so'm / koeffitsient)	Xavf yuzaga kelishini ko'rsatadigan yo'nalish (pasayish / oshish)	KRI darajalari, undan oshish xavf yuzaga kelishini bildiradi		

KRI Paneli shakli

_____holati bo'yicha

t/r	Xavf kodi	Maqsad	Xavf nomi	KRI kodi	KRI nomi	KRI formula si	O'lchash davriyligi	O'lchov birligi	Joriy daraja	Xavf tolerantlik darajasi	KRI yo'nalishi	KRI statusi
1												
2												
3												
4												
5												
n												

Xavflarni boshqarish bo'limi boshlig'i



Sh.T. Sayidova